

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«AVTOMATIKA VA ELEKTROTEXNIKA» FAKULTETI
«MASHINASOZLIK ISHLAB CHIQRISHINI AVTOMATLASHTIRISH»
KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO‘YICHA

TUSHUNTIRISH XATI

Diplom loyihasining mavzusi: **Don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o‘lchashni avtomatlashtirish**

Bitiruvchi 129-14 guruh talabasi

J.Shavkatjonov

Kafedra mudiri:

Yo.Kurbonov

Diplom loyihasi rahbari:

Maslahatchilar:

D.Isroilova

I.Yusupov

ANDIJON –2018

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“AVTOMATIKA VA ELEKTROTEXNIKA” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK ISHLAB CHIQUARISHINI AVTOMATLASHTIRISH”
KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO‘YICHA

TOPSHIRIQ

Shavkatjonov Jaxongirbek Odiljon o‘g‘li

1. Diplom loyihasining mavzusi: **Don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o‘lchashni avtomatlashtirish**

Institut rektorining 2017 yil 12 dekabrda 228-con buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma’lumotlar: **“Andijon don maxsulotlari” AJ dagi mavjud texnologik jarayonni o‘rganish va kerakli ma’lumotlar olish;**

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma’lumotlar:

a) mavjud texnologik jarayon bo‘yicha: **“Andijon don maxsulotlari” AJ dagi mavjud texnologik jarayonni modelini tuzish, optimallashtirish va avtomatik boshqarish sistemasini tavsiflash;**

b) avtomatik rostlash tizimini hisob-kitob qismi bo‘yicha: **“Andijon don maxsulotlari” AJ dagi mavjud texnologik jarayonning texnologik parametrlarini aniqlash, asosiy parametrlari bo‘yicha avtomatik rostlash hisoblarini amalga oshirish;**

v) texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasini loyihalash bo‘yicha: **“Andijon don maxsulotlari” AJ dagi mavjud texnologik jarayonni struktura, funksional, prinsipial elektr va boshqarish pulti yoki schiti sxemalari bo‘yicha tavsiflash;**

g) texnologiya va mehnat muxofazasi qismi bo‘yicha: **Texnologik jarayonni mehnat muxofazasi bo‘yicha bajarilishi kerak bo‘lgan talablar tavsifi;**

4. Diplom loyihasining chizmalari ro‘yxati (A1 formatda 4 ta sxema):

a) avtomatlashtirilgan tizimning struktura sxema chizmasi: **“Andijon don maxsulotlari” AJ dagi don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot**

harorati va namligini o'lchashni jarayonini avtomatlashtirishning struktura sxemasini yoritib berish;

b) texnologik jarayonning funksional sxema chizmasi: “Andijon don maxsulotlari” AJ dagi don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o'lchashni jarayonini avtomatlashtirishning funksional' sxemasini yoritib berish;

v) texnologik jarayonning prinsipial (elektr-, pnevmo-, gidro-) sxema chizmasi: “Andijon don maxsulotlari” AJ dagi don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o'lchashni jarayonini prinsipial' elektr sxemasini yoritib berish;

g) boshqaruv schitini umumiy ko'rinishi: “Andijon don maxsulotlari” AJ dagi don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o'lchashni jarayonini boshqarish pultini umumiy ko'rinish sxemasini yoritib berish;

5. Diplom loyihasining qismlari bo'yicha kalendar reja.

№	Diplom loyihasi qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo (raxbar)	Raxbar F.I.O.
1	Mavjud texnologik jarayon bo'yicha	18.12.2017	10.06.2018		
2	Avtomatik rostlash tizimi hisob-kitob qismi bo'yicha	02.03.2018	10.06.2018		
3	Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini loyihalash bo'yicha	03.04.2018	10.06.2018		
4	Texnik-iqtisodiy qism	25.05.2018	10.06.2018		
5	Texnologiya va mexnat muxofazasi qismlari bo'yicha	25.05.2018	10.06.2018		

6. Topshiriq berilgan sana: 18.12.2017 y.

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi: _____.06.2018 y.

Diplom loyiha raxbari: _____ Topshiriqni bajarish
uchun qabul qildim: _____ J.Shavkatjonov

Kafedra mudiri: _____ Yo.Kurbonov

MUNDARIJA

					Diplom loyihasi				
.	List	№ xujjat	Imzo	Sana	Don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o'lashni avtomatlashtirish				
Bajardi:		J.Shavkatjonov							
DI.raxbari:									
Kaf.mudiri:		Yo.Kurbonov							
					Mundarija				
					AndMI TJICHAB 129-14 gr.				

Kirish

1. Texnologik jarayon va struktura sxemaning tavsifi.....	4
2. Avtomatik rostlanadigan, nazorat qilinadigan va signallashtiriladigan parametrlarni tanlash va asoslash.....	
3. Avtomatlashtirishning funktsional sxemasining tavsifi.....	
4. Boshqaruv pultining sxemasining tavsifi.....	
5. Printsipial elektr sxemasining tavsifi.....	
6. Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika vositalarining spesifikatsiyasi...	
7. Avtomatik rostlashni modellashtirish va sifat ko'rsatkichlari.....	
8. Texnik - iqtisodiy hisob.....	
9. Hayot faoliyati xavfsizligi.....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	

KIRISH

					Diplom loyihasi												
					Don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o‘lchashni avtomatlashtirish							List					
.	List	No xujjat	Imzo	Sana													
Bajardi:		J.Shavkatjonov															
DI.raxbari:																	
Kaf.mudiri:		Yo.Kurbonov								Massa		Masshtab					
					Kirish					AndMI TJICHAB 129-14 gr.							

Sanoatning oziq-ovqat, omuxta em va donni qayta ishlash soxalarida xom - ashyo, yarim fabrikatlar va tayyor maxsulotning kattagina xajmini kelib chiqishi o'simliklardan bo'lgan sohiluvchan don materiallari hisobiga to'g'ri keladi. Xozirgi kunga qadar ushbu materiallar ishtirok etadigan texnologik jarayonlar nazorati tezkor ob'ektiv ma'lumotlar olish uchun ko'p vaqt talab etadigan qiyin usullar yordamida amalga oshirilmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, sanoat ishlab chiqarishida, don materiallarining elektrofizik parametrlarini (birinchi navbatda sohiluvchan jismlarning namligini) ekspress, ishonchli va aniq ifodalash vositalarining yo'qligi sababli, hali ham yo'qotishlar ko'p.

Ma'lumki, 2017 yili "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" belgilab olindi. Bu ustuvor yo'nalishning, ya'ni III chisi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishari"ning 3.2 bandida:

- ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmadagi loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan aktiv investisiya siyosatini olib borish;

- sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizasiya va diversifikasiya qilish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulotlar va xizmatlar ko'rsatish bozorlarida monopoliyani bosqichma bosqich kamaytirish;

- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalar turlarini chiqarishni o'zlashtirish, bunga asosan ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

- ishlab chiqarish mahalliy lashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom etish hamda eng avvalo iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish kabi masalalar o'rin olgan.

Bu diplom loyihada biz don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o'lchashni o'rganib chiqishni maqsad qilib olganmiz.

Tanlangan mavzuning dolzarbligi. Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining real tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilash tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Diplom loyihamizni maqsadi don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o'lchashni jarayonini avtomatlashtirish loyihasini ishlab chiqarishdan iborat.

Diplom loyihasining vazifalari:

1. "Andijon don maxsulotlari" AJ dagi mavjud texnologik jarayonni modelini tuzish, optimallashtirish va avtomatik boshqarish sistemasini tavsiflash;
2. "Andijon don maxsulotlari" AJ dagi mavjud texnologik jarayonning texnologik parametrlarini aniqlash, asosiy parametrlari bo'yicha avtomatik rostlash hisoblarini amalga oshirish;
3. "Andijon don maxsulotlari" AJ dagi mavjud texnologik jarayonni struktura, funkstional, prinstipial elektr va boshqarish pulti yoki schiti sxemalari bo'yicha A1 formatda 4 ta sxema loyihalash;
4. Texnologik jarayonni mehnat muxofazasi bo'yicha bajarilishi kerak bo'lgan talablar tavsifi;


Diplom loyihasining tartibi va tuzilishi: Diplom loyihasi 54 ta bet, 9 ta bob, 8 ta chizma, 9 ta jadval va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati 37 tani tashkil etadi.

Diplom loyihasining ob'ekti. Ushbu diplom loyihasining ob'ekti sifatida "Andijon don maxsulotlari" AJ tanlab olingan.

TEKNOLOGIK JARAYON VA STRUKTURA SXEMASINING TAVSIFI

					Diplom loyihasi					
					Don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o'lashni avtomatlashtirish					
.	List	No xujjat	Imzo	Sana					List	
Bajardi:		J.Shavkatjonov								
Dl.raxbari:										
Kaf.mudiri:		Yo.Kurbonov								
					Massa				Masshtab	
					Texnologik jarayon va struktura sxemasining tavsifi				AndMI TJICHAB 129-14 gr.	

Donni qayta ishlash korxonalarida yangi hosil qabul qilishdan oldin donni qabul qilish, ishlov berish va saqlashning texnologik sxemasi aniqlanadi.



1.1-rasm. Texnologik jarayonning struktura sxemasi.

Texnologik jarayonning struktura sxemasiga asosan, don maxsuloti qabul qilingandan so‘ng noriya yordamida elevatorlarga uzatish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonda donni massasini o‘lchash olib boriladi. So‘ng uzatilayotgan don navbati bilan №1, №2 va № n chi elevatorlarga uzatiladi. Elevatordagi donni saqlash jarayonida uni namligi, xarorati va donni har-hil zararkunandalardan saqlash va nazorat qilishga to‘g‘ri keladi. Agar don maxsulotlari texnologik reglament boyicha saqlangan xolatda uni qayta ishlashga uzatiladi. Donni namligi xaroratiga to‘g‘ri proporsional bo‘lib, donni namligi yuqori bo‘lsa, uni xarorati ham yuqorilaniadi. Shuning uchun saqlash jarayonida shamollatish jarayonini amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bunda noriya yordamida elevatorlar yuqorisiga uzatilib, bo‘sh qolgan elevatorga uzatiladi.

Bosh muxandis va don saqlash xo‘jaligining mudiri bilan birgalikda ishlab chiqarish texnologik laboratoriyasi (ICHTL) boshlig‘i qabul kompaniyasi davrida donni qabul qilish, ishlov berish va joylashtirish rejasini tuzishadi. Don partiyalari ekin turi va tiplari bo‘yicha tuziladi; bir ekinga tegishli donlar esa kichik tip va sinflarga bo‘linadi.

Bug‘doy don partiyalari tuzilganda esa kuchli va qimmatli navlar aloxida ajratiladi. Barcha ekin don partiyalari namlik va ifloslik xolati bo‘yicha

shakllanadi. Bunda quruq ($W < 14$), o'rta quruq ($W = 14,5-15\%$) aloxida bir partiya qilib tuziladi. SHuningdek, nam don ($W = 15,5-17\%$) aloxida, xo'l don ($W = 17-22\%$) aloxida partiya qilib, o'ta xo'l don ($W > 22\%$) aloxida ajratib olinadi. SHu bilan birga don partiyalari ifloslanganlik bo'yicha ham ajratiladi. Bunda toza don-ifloslantiruvchi aralashmalar miqdori 1% gacha, o'rta toza don-ifloslantiruvchi aralashmalar miqdori $1-3\%$, iflos don-ifloslantiruvchi aralashmalar miqdori 3% dan yuqori bo'lgan xolatlar uchun qayd qilinishi kerak. Quruq, o'rta quruq, toza va o'rta toza don partiyalari ishlov berilmasdan saqlashga yuboriladi. Qolgan don partiyalari esa tozalanib, quritilib, so'ng saqlashga yuboriladi.

Don partiyalarini to'g'ri shakllantirish va yuqori texnologik xususiyatlarga ega bo'lgan donlarni ajratib olish maqsadida xosil daladalik vaqtida oldindan tekshirib o'tkaziladi. Bunda komissiya tuzilib, komissiya tarkibiga laboratoriya vakili ham kiritiladi. Qattiq va kuchli bug'doy donidan 1 kg miqdorda o'rta namuna olinib laboratoriyaga tekshirish uchun yuboriladi.

Donni joylashtirishda xar bir don partiyasining sifat ko'rsatkichlari xisobga olinadi va uni qaysi maqsadlarda foydalanilishi, shuningdek xar bir don partiyasining xar-xil saqlash sharoitlarida chidamliligi xisobga olinadi.

Botanik xususiyatlari. Donning unboplik, non yopish va yorma olish xususiyatlarini belgilovchi tipi, kichik tipi, navi xisobga olinadi. Shuning uchun kelib tushgan don partiyalari navi, tipi, kichik tipiga qarab aloxida-aloxida saqlanadi.

Don massasining namligi. Namligiga qarab: quruq va o'rta quruq don massalari nam va namligi 22% dan yuqori bo'lgan don massasi esa xar 6% dan keyin aloxida partiya qilib joylashtiriladi. SHoli uchun esa bu oralik 3% ni tashkil kiladi. Quruqligi bo'yicha qabul qilingan don tarkibidagi namligiga qarab quyidagicha farqlanadi:

- quruq don - namligi $W < 14\%$;
- o'rta quruq don - namligi $W = 14,0...15,5\%$;
- nam don - namligi $W = 15,5...17\%$;
- xo'l don - namligi $W > 17\%$.

Don massasidagi aralashmalar soni va tarkibi. Don massasidagi aralashmalarning miqdori va tarkibiga qarab ham don massasi aloxida partiyalar bilan joylashtiriladi. Tarkibida ko'p begona aralashmalarni saqlagan don massasi siloslarda saqlanilishi kerak. Toza va o'rta toza donlar bitta partiya qilib joylashtiriladi.

Ifloslik xolati bo'yicha qabul qilingan don quyidagicha farklanadi:

- toza don - $If < 1 \%$;
- o'rta toza don - $If = 1...3 \%$;
- iflos don - $If > 3 \%$.

Don massasining xashoratlar va kanalar bilan zararlanishi. Zararkunandalar bilan zararlangan don kelib tushgandan keyin ularning tarkalishiga yo'l qo'ymaslik uchun uni boshqa don saqlagichlardan izolyasiya qilingan don saqlagichlarga aloxida joylashtiriladi. Bu don saqlagichlar zararsizlantirish choralarini ko'rish uchun qulay bo'lishi kerak.

Donni foydalanish maqsadi. Bu ham joylashtirishda xisobga olinadi. Uruglik maqsadidagi donlar ozuqa maqsadida qabul qilingan donlardan aloxida saqlanadi.

Boshqa belgilariga qarab joylashtirish. Don defektlariga qarab joylashtirilishi mumkin. O'sgan donlar aloxida joylashtiradi. Toshbaqasimon-bit bilan zararlangan don partiyasi ham boshqa donlardan aloxida qilib joylashtiriladi. SHuningdek donlarni don saqlagichlarga joylashtirish balandligi ham xisobga olinadi. Bu uning foydalanish maqsadiga, xolatiga, saqlash muddatiga, tipiga va texnologik xolatiga, yil fasli va korxonaning geografik zonasidan bog'liq. Ozuqa va em uchun foydalanishga mo'ljallangan, aralashmalardan tozalangan quruq don (kritik namlikdan past bo'lgan) balandligi cheklanmasdan saqlanishi mumkin. Namligi 17 % dan yuqori bo'lgan donni uning xarorati va yil faslidan bog'liq xolda 1,0-2,5 m balandlikda joylashtirish mumkin. Sovutilgan va aktiv shamollatish qurilmasi bilan uskunalangan omborlarda saqlanayotgan donni yuqori balandlikda joylashtirish mumkin.

**AVTOMATIK ROSTLANADIGAN,
NAZORAT QILINADIGAN VA
SIGNALLASHTIRILADIGAN
PARAMETRLARNI TANLASH VA
ASOSLASH**

					Diplom loyihasi				
					Don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o'lchashni avtomatlashtirish			List	
.	List	№ xujjat	Imzo	Sana					
Bajardi:	J.Shavkatjonov								
DI.raxbari:									
Kaf.mudiri:	Yo.Kurbonov								
					Avtomatik rostlanadigan, nazorat qilinadigan va signallashtiriladigan parametrlarni tanlash va asoslash	Massa		Masshtab	
						AndMI TJICHAB 129-14 gr.			

Donda begona aralashmalarning mavjudligi uz-uzidan qizish, zararkunandalarning rivojlanishiga imkon beradi va quritibishni qiyinlashtiradi. Donni tozalash - ishlov berishning eng muxim boskichi bulib, don sifatini yaxshilab, saqlashda uning chidamliligini oshiradi.

Quyidagi don partiyalari tozalanishi kerak:

- tarkibidagi aralashma miqdori bo'yicha o'rta toza va iflos guruxga tegishli bo'lgan iste'molbop donlar;
- shaxtali quritibgichda quritibish uchun yuboriladigan donlar;
- ifloslantiruvchi aralashmalar miqdori chegaraviy kondisiyadan yuqori bo'lgan embop don partiyasi.

Don tayyorlash kompaniyasidan avval ICHTL boshligi donni tozalash rejasini tuzadi.

Donni tozalash rejasi

1-jadval.

Ekin turi, tip va ifloslik xolati	Don massa-si, T	Besh kunlik			
		1 chi	2 chi	3 chi	chi va boshqalar
Bug'doy, IY tip, jumladan:	18400	10000	4400	4000	
- o'rta toza donlar	6400	4000	1400	1000	
- iflosligi chegaraviy kondisiyagacha bo'lgan don	4000	2000	2000	-	
- iflosligi chegaraviy kondisiyadan ortik bo'lgan donlar	8000	4000	1000	3000	

Separatorning xakikiy ish unumdorligi quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$Q_x = \frac{M \cdot 60}{1000}, \text{ t / soat} \quad (19)$$

bu erda : M - mashinaga tushadigan don aralashmasi, kg / min.

Quyidagi jadvalda xavo-galvirli ajratgich ish jarayonining taxlil natijalari ko'rsatilgan.

Fraksiya tarkibi va chikimi (A1-BIS-100 uchun)

2 - jadval.

Fraksiya	Fraksiya chikimi kg/min	Ajralladigan aralashma miqdori		Don miqdori, % (3.5 galvir koldigi)
		kg/min	%	
Tozalashdan so'nggi don	1300	51	3,92	96,08
Saralash galviri koldigi	15,6	14,2	92,18	7,92
Elash galviri elanmasi	53	51,4	98,68	1,32
Aspirasiya chikindilari	25,6	21,7	86,17	13,83
Jami	1394,2	138,3	9,92	90,18

$$Q_x = \frac{1394.2 \cdot 60}{1000} = 83.65 \text{ t/sut.}$$

Ajratgichlarning ish samaradorligi quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$\eta = \frac{A - V}{A} * 100 \quad (20)$$

bu erda: A - separatorgacha ajraladigan aralashma miqdori, kg;

V - tozalashdan so'ng ajraladigan aralashma miqdori, kg.

$$138,3-51$$

$$\eta = \frac{138,3}{138,3-51} * 100 = 66,4 \%$$

$$138,3$$

Saqlashda don massasi xolatini kuzatish.

Saqlashda don massasining xolati unda kechayotgan fiziologik jarayonlarning jadalligidan va atrof muxit sharoitlaridan bog‘liq xolda uzgaradi. Don massasi xolatini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar katoriga uning xarorati, namligi, aralashmalar miqdori, zararlanganlik xolati, rangi va xidi kiradi. Atmosfera xavosi xaroratining uzgarishidan bog‘liq bulmagan xolda don xaroratining ko‘tarilishi jarayonlarning aktivlashish va uz-uzidan qizishning boshlanishiga olib keladi. Shuning uchun ham don massasi xarorati ustidan nazorat qilinganda tashki xavo va saqlagichning xarorati hisobga olinadi.

Omborlarda saqlanayotgan don massasi xaroratini TMSH-11 termoschupni yordamida ulchash mumkin. Bu qurilma uzunligi 1,6 - 3,2 m, diametri esa 20 mm ni tashkil kiladigan kuvurni namoyon kiladi. Termoschupning ichiga oddiy simobli yoki spirtli termometr urnatilishi mumkin. Elevatorlarda esa don massasining xarorati DKTE-4, DKTE-4M, DKTE-5 qurilmalari yordamida ulchanadi. Bu termometrlar massaning issiklik karshiligi asosida ishlaydi.

Don massasi namligining oshishi natijasida undagi tirik komponentlarning xayot faoliyati kuchayadi. Fakatgina namlikning ko‘tarilishidan emas, balki namlikning teng taksimlanmaganligi hisobidan ham don massasiga zarar etkazilishi mumkin. Bu uz-uzidan qizishga olib keladi. Shuning uchun donni namlik xolati bo‘yicha saqlash uchun tashishda, saqlash paytida, uzatish vaqtida, shuningdek xar qanday donga ishlov berishdan keyin tekshirib turish kerak. Don massasini aralashmalar tarkibi bo‘yicha nazorat qilish mikroorganizmlar, zararkunandalar rivojlanishining oldini olishga va uz-uzidan qizishga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘ta muximdir. Don massasining zararlanganlik xolati bo‘yicha

sistematik nazorat qilish zararkunandalarni aniklash, ularni uz vaqtida va tulik zararsizlantirish uchun kerak. Donniqabulqilishda zararlanganlik bo'yicha qattiq nazorat qilish kerak. Chunki, don massasining boshlangich zararlanishi zararlangan don kelib tushishi xisobidan buladi.

Donning xidi va rangi ustidan regulyar nazorat qilish don massasida yuz berishi mumkin bo'lgan kungilsiz jarayonlarning oldini olishga imkon beradi va donning sifat ko'rsatkichlarini saqlashga imkon beradi. Don massasi ustidan nazoratni tashkil qilish tegishli instruksiyalarga muvofik amalga oshiriladi.

Qattiq va sochiluvchan materiallarning namligini o'lchash usullari shartli ravishda ikki guruxga bo'linadi:

- 1) namunadagi nam yoki quruq modda massasini aniqlashga imkon beradigan bevosita usullar (quritish, ekstraksion va kimyoviy usullar);
- 2) namlikni unga bog'liq parametrni o'lchash yo'li bilan aniqlaydigan bilvosita usullar (konduktormetrik, dielkometrik, o'ta yuqori chastotali, optik, yadroviy magnit rezonansli, termovakuum, teplofizik usullar).

Don xolatini namlik va xaroratdan bog'liq xolda sifatini nazorat qilish

3-jadval

<i>Namlik bo'yicha xolati</i>	<i>YAngi xosil doniniqabulkilgandan so'ng 3 oy davomida</i>	<i>turli xaroratli boshqa donlar</i>		
		<i>$t < 0$</i>	<i>$0 < t < 10$</i>	<i>$t < 10$</i>
uruq va o'rta quruq	5 kunda 1 marta	15 kunda 1 marta	15 kunda 1 marta	15 kunda 1 marta
Nam	xar kuni	15 kunda 1 marta	5 kunda 1 marta	2 kunda 1 marta
Xo'l	xar kuni	10 kunda 1 marta	5 kunda 1 marta	xar kuni

Bevosita usullar yuqori o'lchash aniqligi va uzoq davom etishi bilan farqlanadi (10—15 soatgacha).

Bilvosita usullar yuqori tezlikda bajarilishi va o'lchash aniqligi ancha pastligi bilan xarakterlanadi.

Texnik o'lchashlarda deyarli hamma vaqt bilvosita usullar qo'llaniladi. Bilvosita usullardan konduktometrik, dielkometrik (sig'imli), o'ta yuqori chastotali va optik usullar keng tarqalgan.

Odatda sanoatda ishlatiladigan materiallarning ko'pchiligi kapillyar-g'ovak moddalar bo'lib, ularda nam g'ovaklarda saqlanadi. Material yutishi mumkin bo'lgan nam miqdori kapillyarlarning shakli, o'lchami va joylashuviga, shuningdek, suvning material bilan bog'lanish jixatiga bog'liq. Namning material bilan turlicha bog'lanishi uning fizik tavsiflariga turlicha ta'sir qiladi va bu bog'lanishni aniqlash ancha qiyinchiliklarga bog'liq. SHuning uchun qattiq va sochiluvchan materiallarning namligini o'lchash qiyinchiliklar tug'diradi va darajalangan tavsiflarning etarli bo'lmasligiga olib keladi.

Kapillyar - g'ovak materiallar quruq xolida solishtirma qarshiligi 108 Om•m va undan yuqori bo'lgan dielektrik moddalar hisoblanadi. Kapillyar-g'ovak materiallar namlanganida solishtirma qarshiligi 104 Om•m bo'lgan o'tkazgichlarga aylanishi mumkin.

Konduktometrik namlik o'lchagichlar qattiq va sochiluvchan materiallar namligini o'lchashda keng ishlatiladi. Konduktometrik usul modda namligi bilan uning elektr qarshilik o'rtasidagi bog'lanishga asoslangan. Bu bog'lanish quyidagicha ifodalanadi:

$$R = \frac{C}{W^n} ,$$

bu erda R — meterialning qarshiligi, Om; S — material tabiatiga bog'liq bo'lgan doimiy kattalik; W — materialning namligi, %; n — tekshirilayotgan materiallarning cnrukturasi va tabiatiga bog'liq bo'lgan daraja ko'rsatkichi (turli materiallar uchun keng chegaralarda o'zgarib turadi).


S doimiy ham, daraja ko'rsatkichi p ham xar qaysi material uchun tajriba yo'li bilan aniqlanadi.

Qarshilikning namlikka bo'lgan darajali nisbati kapillyar-g'ovak materiallar namligini konduktometrik usul bo'yicha aniqlash usulining yuqori sezgirligini ko'rsatadi. Lekin qarshilikning boshqa omillarga (xarorat, material tarkibi, zichlik, kimyoviy tarkib, elektrolitlar mavjudligi va boshqalar) murakkab bog'liqligi namlikni avtomatik ravishda uzluksiz o'lchashda bu usulni yaroqsiz qilib qo'yadi. SHuning uchun konduktometrik namlik o'lchagichlarning ishlatilishi cheklangan.

Konduktometrik namlik o'lchagichlarning o'zgartkichlari yassi plastinalar, silindrik naychalar, roliklar va xokazo ko'rinishda ishlangan ikki elektroddan iborat. Konduktometrik namlik o'lchagichlarning ko'rsatishlari faqat tortilmalarning presslanishidagina tiklanadi, shuning uchun sochiluvchan materiallarga mo'ljallangan o'zgartkichlarning ko'pchiligi elektrodlar orasidagi tortilmalarni presslovchi qurilmalar bilan ta'minlangan.

O'lchash sxemalar orasida unumlisi ko'priqli sxemalardir. Ko'priqli o'lchash sxemalari yuqori sezgirlikka ega bo'lib, o'rtacha va yuqori (5 ... 25%) namliklarni o'lchashda ishlatiladi. 2.1-rasmda ko'priqli o'lchash sxemasiga ega bo'lgan avtomatik namlik o'lchagichning prinsipial sxemasi ko'rsatilgan.

Tekshirilayotgan material rolik va val orasidan o'tkaziladi (rolik valdan izolyasiyalangan). Zanjirning asosiy elementi ko'prikdir, ko'prikning R_4 va R_5 elkalari doimiy qarshiliklar, boshqa ikki elkasi esa qo'sh triodning ichki qarshiliklaridir



2.1– rasm. Ko'priqli o'lchash sxemasiga ega bo'lgan avtomatik namlik o'lchagich

(sxemada ikki qo'shimcha R_1 va R_3 qarshiliklar mavjud). Ko'prik diagonali bo'ylab millivoltmetr ulangan. Lampaning chap yarim to'ridagi U_c manfiy kuchlanish R_x qarshilikdagi kuchlanishning pasayishi orqali aniqlanadi va u doimiy bo'ladi.

Shuning uchun triodning chap yarimidagi qarshiilik ham doimiy bo'ladi. O'ng triod to'ridagi manfiy kuchlanish U_s dan $I R_b$ qattalikka farq qiladi. I tok esa ko'rilyotgan materialning R_x qarshiligi va R_2 reoxord sirpang'ichining xolatiga bog'liq. Reoxord sirpang'ichi millivoltmetr cnrelkasiniig nol xolatidan (ko'prik muvozanati buzilgan) chetga chikishida R_2 da kuchlanishning pasayishi, R_6 va R_7 larda kuchlanishning pasayishi bilan muvozanatlashguncha kompensator orqali xarakatga keltiriladi.

Triodning ikkala yarmidagi siljish kuchlanishlari bir xil bo'lganida, ko'prik muvozanat xolatiga keladi. Namlikning binobarin material qarshiligi R_x ning o'zgarishi bilan R_6 qarshilikda tok xosil bo'ladi, ko'prik muvozanati buziladi, natijada R_2 sirpang'ich tegishli qiymatga siljiydi. Xar bir namlik qiymatiga reoxord sirpang'ichi R_2 ning muayan xolati mos keladi.

Yuqorida aytilganidek, o'zgartkich qarshiligi material namligidan tashqari boshqa omillarga ham bog'liq. Shuning uchun qarshilik va namlik o'rtasidagi nisbatni ta'riflovchi egri chiziqlarning xarakteri bir xil bo'lsa ham turli moddalarga mos kelmaydi (xar bir modda uchun darajali egri chiziq yoki hisoblash jadvallari kerak bo'ladi).

Dielkometrik usul kapillyar-g'ovak jismlar namligining o'zgarishi ularning dielektrik singdiruvchanligini o'zgartirib yuborishiga asoslangan. quruq jismlarda dielektrik singdiruvchanlik $\epsilon = 1 \dots 6$, suvniki esa $\epsilon = 81$. Materialning namligi o'zgarishi natijasida dielektrik singdiruvchanlikning o'zgarishini, odatda, qoplamlari orasiga taxlil qilinayotgan material joylashtirilgan kondensator sig'imining o'zgarishi bo'yicha aniqlanadi. Dielkometrik namlik o'lchagichning o'zgartkichi ikkita yassi plastina yoki ikkita konsentrik silindrlar tarzida yasalib, ularning orasi taxlil qilinayotgan material bilan to'ldiriladi. Geometrik o'lchamlari ma'lum kondensatorning sig'imini quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$C=K \cdot \varepsilon ,$$

bu erda, K — kondensatorning geometrik o'lchamlari va shakliga qarab aniqlanadigan doimiy; ε — materialning namligi bo'yicha aniqlanadigan dielektrik singdiruvchanlik.

Sig'imli o'zgartkichining yuqori chastotali tebranish konturiga ulanishi o'zgartkichning sig'imini va unga qarab materialning namligini o'lchash uchun lampada yoki yarim o'tkazgichli asboblarning rezonansli sxemalaridan foydalanishga imkon beradi. Sig'imli o'zgartkichlar materialning tarkibi, uning tuzilishi. Hamda elektrod bilan material o'rtasidagi kontakt qarshilikka kam sezgir. Chunki ko'pchilik materiallarning dielektrik singdiruvchanligi xaroratga bog'liq bo'ladi, sanoat asboblarda xaroratning o'zgarishiga tuzatmani avtomatik kiritish ko'zda tutiladi.

Sig'imli namlik o'lchagichlarning xatoligi 0,2...0,5% ni tashkil etishi mumkin. Biroq namuna olish usuli (kondensator qoplamlari orasini material bilan to'ldirish) o'lchash natijalariga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, schatto taxlil qilinayotgan material zarrachalarining o'zgarishi namlik o'lchagichning ko'rsatishiga juda katta ta'sir qiladi. Shu sababli qattiq va sochiluvchan moddalarning namligini o'lchaydigan sig'imli namlik o'lchagichlar texnik o'lchashlarda kamroq qo'llaniladi.


Qattiq sochiluvchan, shuningdek, tolali materiallar namligini o'lchashning murakkabligi shundaki, datchik material bilan o'zaro ta'sirlashganida uning strukturasi, to'qilma zichligi va boshqa omillar o'zgarishi va ular asbob xatoligini juda ko'paytirib yuborishi mumkin. Shuning uchun sanoatda asosan kontaktsiz o'lchash usullari qo'llanilgan: o'ta yuqori chastotali va optik usullar.

O'ta yuqori chastotali (O'YUCH) namlik o'lchagichlarda suv va quruq moddaning elektr xossalari ancha (o'nlab marta) farq qilishidan foydalaniladi.

Namlik qiymati taxlil qilinayotgan material qatlamidan o'tayotgan o'ta yuqori chastotali nurlanishlarning susayishiga qarab o'lchanadi.


AVTOMATLASHTIRISHNING
FUNKSIONAL SXEMASINING
TAVSIFI

					Diplom loyihasi									
					Don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o‘lchashni avtomatlashtirish						List			
.	List	№ xujjat	Imzo	Sana										
Bajardi:		J.Shavkatjonov												
DI.raxbari:														
Kaf.mudiri:		Yo.Kurbonov			Avtomatlashtirishning funksional sxemasining tavsifi				Massa		Masshtab			
									AndMI TJICHAB 129-14 gr.					



3.1-rasm. Don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o‘lchashni avtomatlashtirishning funksional sxemasi

Texnologik jarayonni avtomatlashtirishning funksional sxemasiga asosan, don maxsuloti qabul qilingandan so‘ng noriya yordamida elevatorlarga uzatish jarayoni boshlanadi. Noriyani poz.4-1 dagi elektr dvigatel yordamida xarakatga keltiriladi. Bu jarayonda donni massasini o‘lchash olib boriladi. Bunda poz.7-1 dagi electron bunker tarpzi yirdamida amalga oshiriladi. So‘ng uzatilayotgan don navbati bilan №1, №2 va № n chi elevatorlarga uzatiladi. Elevatordagi donni saqlash jarayonida uni namligi, xarorati va donni har-hil zararkunandalardan saqlash va nazorat qilishga to‘g‘ri keladi. Buni amalga oshirish uchun biz tamondan taklif qilinayotgan *saqlanayotgan don xolatini nazorat qilish uchun qurilmadan* foydalanamiz. Uning sxemasi 3.2-rasmda keltirilgan. Sxemada bu qurilma poz.1-1, poz.2-1 va poz.3-1 da yoylashgan. Agar don maxsulotlari texnologik reglament boyicha saqlangan xolatda, trasporter yordamida qayta ishlashga uzatiladi, uni poz.6-1 dagi elektrdvigatel xarakatga keltiradi.




3.2-rasm. Saqlanayotgan don xolatini nazorat qilish uchun qurilma.

1-qopqoq; 2- diod lampa; 3-namlik datchigi; 4-perforirovalangan teshik; 5-varonkasimon ushlagich; 6-varonkasimon ushlagich; 7-xarorat datchigi; 8-o'tish kanali; 9- diod lampa; 10-video kamera; 11-maxsus idish; 12-pastki qopqoq.

Prinsipial’ elektr sxemasining
tavsifi

					Diplom loyihasi								
					Don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o‘lchashni avtomatlashtirish						List		
.	List	№ xujjat	Imzo	Sana									
Bajardi:		J.Shavkatjonov											
DI.raxbari:													
Kaf.mudiri:		Yo.Kurbonov			Prinsipial’ elektr sxemasining tavsifi				Massa		Masshtab		
									AndMI TJICHAB 129-14 gr.				



4.1-rasm. Don maxsulotlarini saqlash jarayonida zararkunandalar miqdori, maxsulot harorati va namligini o'lash qurilmasini elektr bilan ta'minlashni prinsipial' elektr sxemasi

Avtomatlashtirish vositalari va asboblarning elektr ta'minoti sxemasini tanlash, talab etilgan elektr ta'minotini uzilishlarsiz ta'minlash, ta'minot manbalari va elektr qabul qilgichlarni hududiy taqsimlanishini, yuklanish qiymatini hamda foydalanishda qulaylik va xavfsizlikni ta'minlashni belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Sxemani tanlashni baholash va natijaviy ko'rinishini qabul qilish avtomatlashtirilayotgan ob'ektning aniq ish sharoitlarini e'tiborga olgan holda barcha talablar to'plamiga ko'ra amalga oshiriladi.

Avtomatlashtirish sistemasining elektr ta'minoti sxemalarida asosan ikkita bo'g'in ajratiladi:

- ta'minlovchi tarmoq (ta'minlash liniyasi) – ta'minot manbasidan markaziy boshqaruv punkti va ta'minot yig'masigacha bo'lgan tarmoq;
- taqsimlovchi tarmoq – markaziy boshqaruv punktidan elektr qabul qilgichlarga bo'lgan tarmoq. Bu tarmoqqa shuningdek birlamchi asboblari, ikkilamchi asboblari datchiklar va rostlovchi qurilmalar bilan bog'liq bo'lgan barcha zanjirlar kiradi.

Taqsimlovchi tarmoqlarning sxemalari radial tamoyilga ko'ra tuziladi: har bir elektr qabul qilgich markaziy boshqaruv punktiga yoki manba tarqatuvchisiga radial liniya bo'yicha ulanadi.

Elektr ta'minoti sistemasining ta'minlovchi va taqsimlovchi tarmoqlari bir fazali ikki o'tkazgichli (bitta fazali va bitta nol o'tkazgichli), ikki fazali ikki o'tkazgichli (ikki fazali o'tkazgichli), ikki o'tkazgichli o'zgarmas tokli tarmoqlar faqatgina erga ulanmagan o'zgarmas toklar uchun haraladi, uch fazali uch o'tkazgichli va uch fazali to'rt o'tkazgichli qilib amalga oshiriladi.

Elektr ta'minoti sxemasini tanlashda zaruriy zaxiralash darajasini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu elektr ta'minoti sistemi elektr iste'molchilarni ishonchli (uzilishlarsiz) ta'minlashni belgilab beradi.

Elektr ta'minoti sistemalarida bevosita zaxiraning avtomatik kirishi (ZAK) ni harab chiqish, bu sistemaning ta'minot manbalari noqulay sharoitlarda o'tkazilgan yoki ularni shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan qandaydir boshqa faktorlar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Elektr ta'minotining ZAK avtomatlashtirish sistemasining ishini buzilishiga olib kelmasligi kerak.

4.1-chizmada zaxiradagi manba kirishini avtomatik ulash sxemasi (ZAK sxemasi) keltirilgan. Me'yoriy ish rejimida kirish 1 ulangan va rele K1 tok ta'sirida va uning kirish 2 zanjiridagi kontaktlari ochiq bo'ladi. Kirish 1 da kuchlanish yo'qolib qolganda rele K1 kirish 2 ni ulab beradi. Shu bilan bir vaqtda navbatchi xizmatchini ZAK ning ish xolatidan xabar qiluvchi signal NA1 ni ishga tushiradi. Signal SB1 tugmasi orqali o'tib, kirish 2 ning ulanganligini signallovchi HL1 chiroqni yoqadi, SB2 tugma esa signalni sinovdan o'tkazishga xizmat qiladi. Kirish 1 ni yana ishga tushirish (nosozliklar bartaraf etilgandan so'ng) qo'lda amalga oshiriladi.

Avtomatlashtirish vositalari va asboblari ta'minot sistemasida o'rnatilgan boshqarish va himoya apparaturalari quyidagilarni ta'minlashi zarur: me'yoriy ish rejimidagi elektr qabul qilgichlar va tarmoq soxalarini ulashi va ajratishni; tekshiruv va ta'mir ishlarini olib borish uchun talab etilgan hollarda barcha turdagi

qisqa tutashuvlar va ortiqcha yuklanishlardan elektr qabul qilgichlar va liniyalarni ishonchli ajratishni.

Ko'rsatib o'tilgan talablarni amalga oshirish uchun boshqarish va himoya apparatlarining ma'lum uyg'unligidan foydalaniladi. Odatda elektr ta'minotining ta'minlovchi va taqsimlovchi tarmoqlarida quyidagilar ishlatiladi:

- a) ta'minlovchi tarmoqlarda – avtomat, rubilnik-saqлагich;
- b) ijro mexanizmlarining elektr dvigatellari va ventillarning elektr uzatmalarining zanjirlarida: avtomat – magnitli ishga tushirgich, rubilnik – saqlagichlar – magnit ishga tushirgich, bu elektr dvigatellarni ortiqcha yuklanishdan himoyalash uchun issiqlik va gidravlik sekinlatkichlardan foydalaniladi.
- v) nazorat-o'lchash asboblari, rostlash qurilmalari, transformatorlar, to'g'rilagichlar va boshqalarning zanjirida: paketli ajratgich (rubilnik, boshqarish kaliti, tumbler) – saqlagich, avtomat (agar u qisqa tutashuga etarli darajada sezgir bo'lsa va bu foydalanish qulayligi talablari va iqtisodiy jihatdan o'zini oqlasa);
- g) ishlab chiqarishdagi signallash sxemalarining ta'minot zanjirlarida: paketli ajratgich (rubilnik, boshqarish kaliti, tumbler) – saqlagichlar, avtomat.


